

**Kinematografiya agentligining “Ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib
tushgan O‘zbeiston Respublikasi Prezidenti, Prezident
Administratsiyasi rahbari va Vazirlar Mahkamasi
hujjatlari ijrosi bo‘yicha**

MA’LUMOT

Kinematografiya agentligida O‘zbeiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbari va Vazirlar Mahkamasi hujjatlari ijrosini tashkil etishda o‘z faoliyatini **PF-6166-son, PF-117-son Farmonlari** hamda **PQ-5132-son qaroriga** muvofiq Agentlik boshqarma va bo‘limlari hamda tizim tashkilotlarida qonunchilik hujjatlari ijrosi **tizimli ravishda o‘rganilib, tahlil qilib borilmoqda.**

Tahlillar natijasiga ko‘ra **“Ijro.gov.uz”** tizimi orqali joriy yil yanvar-fevral oylari davomida Agentlikka **14 ta Prezident hujjati bilan 18 ta topshiriq** (shundan, yanvarda **12 ta**, fevralda **6 ta**, topshiriq);

Prezident Administratsiya rahbarining **6 ta hujjati bilan 6 ta topshiriq** (shundan, yanvarda **1 ta**, fevralda **5 ta**, topshiriq);

Vazirlar Mahkamasining 3 ta hujjati bilan 3 ta topshiriq (shundan, yanvarda **1 ta**, fevralda **2 ta**, topshiriq) bo‘yicha nazorat reja, **kunbay kalendar grafik va “Yo‘l xarita”lari ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.**

Topshiriqlar ijrosi bo‘yicha har haftaning dushanba kuni Agentlik direktori huzuridagi apparat yig‘ilishlarida muhokama qilib borildi.

Natijada, **Prezident hujjatidagi 18 ta, Administratsiya rahbarining 6 ta va Vazirlar Mahkamasining 3 ta topshirig‘i ijrosi (100%ga) to‘liq ta‘minlandi.**

Mart oyida O‘zbeiston Respublikasi Prezidentining **12 ta, Prezident Administratsiyasi rahbarining 4 ta va Vazirlar Mahkamasining 14 ta** topshiriqlari ijrosini tashkil etish yuzasidan ishlab chiqilgan kunbay kalendar-grafik va yo‘l xaritasi asosida **kunlik nazorat qilinib, har hafta dushanba kuni ijro apparat yig‘ilishida muhokama qilib borilmoqda.**

Bugungi kun holatiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbari va Vazirlar Mahkamasi **hujjatlarida qarzdorlik mavjud emas.**